https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 30.01.2026

Berdimurodov72@gmail.com

Berdimurodov Akmaljon Azamat o'g'li

“TIQXMMI” MTU Iqtisodiyot kafedrasi o'qituvchisi

Uralovjavohir005@gmail.com

Uralov Javohir Fazliddin o’g’li

“TIQXMMI” Milliy Tadqiqot Universiteti

Iqtisodiyot yo’nalishi 2-bosqich talabasi

MINTAQAVIY IQTISODIY INTEGRATSIYANING SAVDOGA TA’SIRI, BIBLIOMETRIK TAHLIL

ANNOTATSIYA

Hozirgi globallashuv sharoitida mintaqaviy iqtisodiy integratsiya iqtisodiy o‘sishni rag‘batlantirish, savdo aloqalarini kengaytirish va hamkorlikni rivojlantirish uchun muhim strategik vositaga aylangan. Rivojlangan mamlakatlar tajribasi shuni ko‘rsatadiki, integratsiya orqali savdo to‘sishlarini kamaytirish, xorijiy investitsiyalarni jalb qilish va texnologik innovatsiyalarni rag‘batlantirish mumkin, bu esa iqtisodiy farovonlik va o‘sishni oshiradi. Ushbu jarayonlar O‘zbekistonning 2030-yilga mo‘ljallangan rivojlanish strategiyasidagi savdoni liberallashtirish, investitsiyalarni rag‘batlantirish va sanoatni modernizatsiya qilish maqsadlariga mos keladi.So‘nggi yillarda Markaziy Osiyo mintaqasida suv resurslari tanqisligi qishloq xo‘jaligi samaradorligini pasaytirib, oziq-ovqat xavfsizligi va aholi salomatligiga tahdid solmoqda. Mintaqa mamlakatlarining resurslar bo‘yicha o‘zaro to‘ldiruvchi ustunliklari — suv (Tojikiston va Qirg‘iziston), energiya (Turkmaniston), inson kapitali (Qozog‘iston) va mehnat resurslari (O‘zbekiston) — integratsiya doirasida muvofiqlashtirilsa, iqtisodiy xavflarni kamaytirish va barqaror o‘sishni ta’minlash mumkin.Ushbu tadqiqot

https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 30.01.2026

1995–2024-yillarda nashr etilgan 82 ta Scopus maqolasini tahlil qiladi. Natijalar shuni ko‘rsatdiki, so‘nggi 8 yil ichida maqolalar soni sezilarli oshgan. Nashriyotlar bo‘yicha yetakchi mamlakatlar Xitoy (26 ta), AQSh (11 ta) va Rossiya (9 ta) bo‘lib, eng faol mualliflar Obasaju B.O., Okodua H., va Olayiwola W.K. hisoblanadi (har biri 2 ta maqola chop etgan).

Ushbu tadqiqot natijalari global muammolarni aniqlash va ularga yechim topish bilan shug‘ullanuvchi tadqiqotchilar, siyosatchilar va iqtisodchilar uchun foydali ma’lumot beradi. .

Kalit so‘zlar: Mintaqaviy iqtisodiy integratsiya; Savdo; Mintaqaviy hamkorlik; Bibliometrik tahlil.

ABSTRACT

In the current context of globalization, regional economic integration has become an important strategic tool to stimulate economic growth, expand trade relations, and promote cooperation. The experience of developed countries shows that integration can reduce trade barriers, attract foreign investment, and encourage technological innovations, which in turn enhance economic prosperity and growth. These processes are fully aligned with Uzbekistan’s 2030 development strategy, which aims to liberalize trade, promote investment, and modernize industry.

In recent years, water scarcity in the Central Asian region has reduced agricultural productivity, threatened food security, and posed risks to public health. If the complementary advantages of the region’s countries—water resources (Tajikistan and Kyrgyzstan), energy resources (Turkmenistan), human capital (Kazakhstan), and labor resources (Uzbekistan)—are coordinated within the framework of integration, it can help mitigate economic risks and ensure sustainable economic growth and regional stability.

https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 30.01.2026

This study analyzes 82 Scopus-indexed publications published between 1995 and 2024. The results indicate that the number of publications has significantly increased over the last eight years. Leading countries in publication output include China (26 publications), the United States (11 publications), and the Russian Federation (9 publications). The most active authors in this field are Obasaju B.O., Okodua H., and Olayiwola W.K., each having published two articles.

The results of this study provide valuable information for researchers, policymakers, and economists involved in identifying global challenges and developing strategies to address them.

Keywords: Regional economic integration; Trade; Regional cooperation; Bibliometric analysis.

В условиях современной глобализации региональная экономическая интеграция стала важным стратегическим инструментом для стимулирования экономического роста, расширения торговых связей и развития сотрудничества. Опыт развитых стран показывает, что интеграция позволяет снизить торговые барьеры, привлечь иностранные инвестиции и стимулировать технологические инновации, что, в свою очередь, повышает экономическое благосостояние и рост. Эти процессы полностью соответствуют стратегии развития Узбекистана до 2030 года, направленной на либерализацию торговли, привлечение инвестиций и модернизацию промышленности.

В последние годы дефицит водных ресурсов в регионе Центральной Азии снизил продуктивность сельского хозяйства, угрожал продовольственной безопасности и создавал риски для здоровья населения. Если взаимодополняющие преимущества стран региона — водные ресурсы (Таджикистан и Кыргызстан), энергетические ресурсы (Туркменистан), человеческий капитал (Казахстан) и трудовые ресурсы (Узбекистан) — будут

https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 30.01.2026

координированы в рамках интеграции, это поможет снизить экономические риски и обеспечить устойчивый экономический рост и региональную стабильность.

В данном исследовании проанализировано 82 публикации, индексированные в Scopus, опубликованные в период с 1995 по 2024 год. Результаты показывают, что за последние восемь лет количество публикаций значительно увеличилось. Лидирующие страны по количеству публикаций: Китай (26 публикаций), США (11 публикаций) и Российская Федерация (9 публикаций). Наиболее активные авторы в данной области — Obasaju B.O., Okodua H. и Olayiwola W.K., каждый из которых опубликовал по две статьи.

Результаты исследования предоставляют ценную информацию для исследователей, политиков и экономистов, занимающихся выявлением глобальных проблем и разработкой стратегий их решения.

Ключевые слова: Региональная экономическая интеграция; Торговля; Региональное сотрудничество; Библиометрический анализ.

Introduction.

Mintaqaviy iqtisodiy integratsiya bugungi kunning eng mashur muammolaridan biri. Mintaqaviy iqtisodiy integtasiya 21-asrning eng muhim mavzularidan biriga aylanib ulgurgan chunki Hozirgi rivojlangan dunyoda Mintaqaviy iqtisodiy integratsiyaning o’rni beqiyos, chunki mamlakatlar o’rtasida savdo muammolarini hal qilishda va ular o’rtasidagi to’siqlarni yechish uchun ham bu juda ham yaxshi asos bo’la oladi. Bundan tashqari xalqaro investetsiyani va bozor liberallashishiga ham tarifdagi qiyinchiliklarni yengishda, savdo cheklovlarini yengillashtirishda, bozorda mahsulotlarning narxi tushib ularning sifati yaxshilanishida ham raqobatni kuchli bo’lishida ham kuchli asos bo’lib xizmat qiladi va yana bozorda kapital, mehnat resurslari, Tovar va ximatlar erkin

https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 30.01.2026

bo'ladi. Bundan tashqari globallashgan dunyoda dunyo shiddat bilan rivojlanib boryapti va yana shuni aytish muhimki global muammolar ham o'zining yomon ta'sirini berib kelmoqda jumladan iqlim o'zgarishi, global isish, havo ifloslanishi, suv resurslariningkeskin kamayib ketishi (1) bu kabi muammolar iqtisodiyotga ham to'g'ridan-to'g'ri ta'sir qiladi va bunday sharoitda mamlakatlarning bir o'zi yechim izlashi ularning imkon doirasidan tashqarida. Misol uchun O'zbekistonda bugun suv (2) dolzarb muammolardan biri shuning uchun ham mamlakatimiz (3) qo'shni davlatlar bilkan kuchli mintaqaviy iqtisodiy integratsiyani yo'lga qo'yishi kerak chunki Tojikiston va Qirg'izistonda suv muammo emas, Qozog'iston inson kapitali bilan mashhur, Turkmaniston o'zining neft mahsulotlari bilan mashhur, O'zbekiston mehnat resurslari ko'pligi bilan mashhur. Shunday ekan davlatlar bir-birlari bilan mintaqaviy har tomonlama iqtisodiy, siyosiy va boshqa masalalarda integratsiyalashgan tizimni ishlab chiqib unga amal qilishni boshlasa har bir mamlakat o'zining muammolarini sezilarli darajada kamaytirgan bo'ladi. Bu kabi tashabbuslar O'zbekiston respublikasi Prezidenti Shavkat Miromonovich Mirziyoyev raisligida 2025-yil, 15–16-noyabr kunlari Toshkent shahrida Markaziy Osiyo davlatlari rahbarlarining yettinchi Maslahat(4) uchrashuvi bo'lib o'tadi. Uchrashuvda Sammit ishida Ozarbayjon prezidenti Ilhom Aliyev, Qozog'iston prezidenti Qasim-Jomart Toqayev, Qirg'iziston prezidenti Sadir Japarov, Tojikiston prezidenti Emomali Rahmon, Turkmaniston prezidenti Serdar Berdimuhamedov, shuningdek, BMTning Markaziy Osiyo uchun preventiv diplomatiya bo'yicha mintaqaviy markazi rahbari Kaxa Imnadze ishtirok etishdi va mintaqaviy iqtisodiy, siyosiy, geosiyosiy hamkorlik haqida bir qator strategiyalarni ko'rib chiqdilar.

Bundan tashqari mintaqaviy iqtisodiy integratsiyaning bir qancha foydali tomonlari bor bular Ishga joylashtirish imkoniyatlari, bu bir mamlakat mehnat resurslarining ayniqsa O'zbekiston o'zining mehnat resursi ko'p bo'lgan mamlakat hisoblanadi va agar boshqa davlatlar bilan ijobiy integratsiya muhitini yaxshilay olsak bizni insonlar boshqa mamlakatlarga borib ishlab daromad qilish

https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 30.01.2026

imkoniyatiga ega bo'ladi(5). konsensus va hamkorlik. A'zo davlatlar kamroq sonli davlatlar bilan kelishuvga erishishni osonlashtirishi mumkin. Mintaqaviy tushunish va o'xshashliklar ham yaqinroq siyosiy hamkorlikka yordam berishi mumkin. Savdoni rivojlantirish. Ushbu kelishuvlar savdo va investitsiyalarga to'siqlarni olib tashlash orqali mamlakatlar uchun bir-biri bilan savdo qilish uchun ko'proq imkoniyatlar yaratadi. Tariflarning kamayishi yoki olib tashlanishi tufayli hamkorlik blok mamlakatlaridagi iste'molchilar uchun narxlarning arzonlashishiga olib keladi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, mintaqaviy iqtisodiy integratsiya kam rivojlangan mamlakatlarda nisbatan yuqori o'sish sur'atlariga sezilarli darajada hissa qo'shadi.

Bundan tashqari Iqtisodiy tadqiqotlar va islohotlar markazi tomonidan prezident Shavkat Mirziyoyevning BMT Bosh assambleyasining 80-sessiyasidagi (6) nutqida mintaqaviy hamkorlik ayniqsa Markaziy Osiyo mamlakatlari bilan hamkorlik haqida o'zining fikrlarini berib o'tganlar. Bundan ham bugungi kunda boshqa mamlakatlar bilan keng iqtisodiy integratsiyaning amalga oshirilishi muhim mavzu ekanidan dalolat beradi.

Bundan tashqari 07.11.2025 sanada Davlatimiz rahbari Vashington shahridagi Oq uyda Prezident Donald Tramp bilan samarali muzokaralar o‘tkazdi hamda Markaziy Osiyo mamlakatlari va AQSh yetakchilarining “C5+1” formatidagi sammitida ishtirok etdi.

O‘zbekiston – AQSh strategik sheriklik munosabatlarini yanada rivojlantirish, “C5+1” formatida Markaziy Osiyo va AQSh o‘rtasidagi hamkorlikni chuqurlashtirish bo‘yicha kelishuvlarga erishildi (7) bu ham bugungi kunda davlatlar o'rtasidagi iqtisodiy integratsiyaning roli yuqori ekanidan dalolat beradi.

2025-yil. 10-noyabrda AQSh Davlat departamenti O‘zbekiston prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Vashingtonga tashrifi doirasida erishilgan bitimlar haqida ma'lumot berdi. Kelishuvlar sanoat, aviatsiya, qishloq xo‘jaligi, mineral resurslar

https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 30.01.2026

va xavfsizlik sohalarini qamrab olgan. Aviatsiya sohasida (8) hamkorlik doirasida O‘zbekiston 8,5 milliard dollarga 22 ta Boeing 787 Dreamliner samolyotini sotib olish bo‘yicha bitimlar imzolandi. Qishloq xo‘jaligi sohasida keyingi uch yilda AQShdan 2 milliard dollarlik qishloq xo‘jaligi texnikasi, 2 million tonna soya dukkakli mahsulotlari va 100 ming tonna paxta import qilish bo‘yicha kelishuvlar amalga oshirilgan bu yerdan ham ko’rishimiz mumkinki hozirgi kunda davlatlar aro iqtisodiy munosabatlarning yo’la qo’yilishi har ikki tomon uchun ham juda katta manfaat keltiradi deyishimiz mumkin.

Yuqoridagi ma’lumotlarga asoslanib mintaqaviy iqtisodiy integratsiyaning mamlakat iqtisodiyotiga keng qamrovli foyda olib kelishiga guvoh bo’ldik va bu mavzu bugungi kunda ham erta ham dolzarb mavzuga aylanishini bibliometrik tahlil orqali aniqladik va bu tadqiqot iqtisodchilarga , siyosatchilarga ilmiy izlanuvchilarga katta foyda olib kelishi natijlardan bizga ma’lum.

Dunyo bo'ylab mintaqaviy iqtisodiy integratsiya tahlillariga ko'ra, Xitoy va AQSH mamlakatlari mintaqaviy iqtisodiy integratsiya tadqiqotlarda institutlar (7-rasm), mualliflar (6-rasm), mamlakatlarning hissasi (4-rasm) va moliyalashtirish homiylari (8-rasm) bo'yicha ustunlik qilgan. Nashrlarning aksariyati Xitoy, AQSH, Rossiya Federatsiyasi kabi mamlakatlarida nashr etilgan (4-rasm). Nashrlarning aksariyati rivojlangan mamlakatlarda nashr qilinganini ko’rishimiz mumkin. Chunki Sakkizinchi besh yillik reja Xitoyda iqtisodiy modernizatsiya va islohotlarning yangi davrini boshlashga yordam berdi. 1992-yilda Deng Xiaoping tomonidan kiritilgan "sotsialistik bozor iqtisodiyoti" (9) g'oyasi esa Xitoyning iqtisodiy tizimining yangilanishini boshladi.

2. Materiallar va Metodlar

Ushbu sharhda biz o'tkazilgan tadqiqotlardan global bilimlar bo'yicha nashrlarni qidirdik. Tadqiqot 1995-yildan 2024-yilgacha eng ko'p ishlatiladigan bibliografik onlayn ma'lumotlar bazalari Scopusda "Mintaqaviy iqtisodiy integratsiya" va "iqtisodiy integratsiya" kalit so'zlar sifatida ishlatilgan holda olib

https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 30.01.2026

borildi. Tahlil 2025-yil dekabr oyida o'tkazildi. Mintaqaviy iqtisodiy integratsiyaning savdoga ta'sirini yanada tahlil qilish uchun dunyo bo'ylab jami 82 ta nashr saralandi. Tahlil CSV fayli, Microsoft Excel fayllari, RIS fayli va BIB fayllari kabi fayllar yordamida amalga oshirildi. Tadqiqotda biz Microsoft Excel 2021, VOS viewer, Map chart, Mendeley va R Studio kabi vositalardan foydalandik.

2.1 Maqolani ko'rib chiqish va o'rganishga muvofiqlik mezonlari.

Qidiruv jarayoni uchun elektron jadvalga ingliz tilidagi maqolalar bo'lgan "Mintaqaviy iqtisodiy integratsiya" va "iqtisodiy integratsiya" kalit so'zlari kabi tegishli ma'lumotlar qo'shildi. ((KEY(mintaqaviy iqtisodiy integratsiya) AND KEY(iqtisodiy integratsiya)) AND PUBYEAR > 1995 AND PUBYEAR < 2024 AND (LIMIT-TO (SUBJAREA, "ECON")) AND (LIMIT-TO (LANGUAGE, "English"))). 1-rasmda tadqiqot uchun tanlangan metodologiyaning oqimi ko'rsatilgan.

Tanlov jarayonida quyidagi istisno mezonlari qo'llanildi:

1. Ko'pgina maqolalarda DOI yo'q va maqolalarni topish imkoniyati cheklangan.

2. Faqat maqolaning sarlavhasi va annotatsiyasi ingliz tilida keltirilgan, qolganlari esa boshqa tilda.

2.2 Bibliometrik tahlil

CSV formatida olingan ma'lumotlar Excelga yuklandi va keyinchalik bibliometrik tahlil o'tkazildi. Tahlillarni boshlashdan oldin ma'lumotlar xatolarga sinchkovlik bilan tekshirildi. Ko'rib chiqilgan maqolalar tahlil qilindi va ularning dolzarbligi muhokama qilindi. Tanlangan hujjatlar Scopus ma'lumotlar bazasidan yuklab olindi va R Studio va VOSviewer kabi vositalar yordamida qayta ishlandi.Natijalarni tahlil qilish uchun biz R Studio yoki VOSviewer kabi

https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 30.01.2026

vizualizatsiya tahlil vositalaridan ham foydalandik. Vizualizatsiya tahlili uchun biz eng yaxshi hammuallifliklar va kalit so'z munosabatlarini tahlil qilish vizualizatsiyalarini tanladik. R Studioda uch maydonli grafik, xarita daraxti va vaqt jadvaliga asoslangan pufakchali vizualizatsiya tanlandi

Tadqiqot jarayonida quyidagi jihatlar o'rganildi:

• Hujjat turi bo'yicha maqolalar soni;

• Eng ko'p maqola nashr etgan mamlakatlar;

• Mavzu sohalari bo'yicha nashr etilgan maqolalar soni;

• Ushbu mavzu bo'yicha eng ko'p maqola nashr etgan jurnallar;

• Eng ko'p maqola nashr etgan mualliflar;

• Ushbu sohada eng ko'p tadqiqot olib borgan muassasalar;

• Nashrlar uchun eng ko'p mablag' ajratgan tashkilotlar.

• VOS viewer tomonidan nashrlar va hammualliflik tarmoqlaridagi eng keng tarqalgan kalit so'zlar klasterlari tahlil qilindi.

• Mintaqaviy iqtisodiy integratsiya mavzusida tadqiqot sohasidagi mamlakat-muallif-kalit so'z munosabatlarining uch sohali syujetini tahlil qilish.


• Eng ko'p iqtibos keltirilgan mamlakatlarni tahlil qilish.

• Mintaqaviy iqtisodiy integratsiya bo'yicha dunyo miqyosida eng ko'p iqtibos keltirilgan hujjatlarni tahlil qilish.

• Eng ko'p ishlatiladigan so'zlarni tahlil qilish.

• Mintaqaviy iqtisodiy integratsiya mavzusi bo'yicha trend mavzularini tahlil qilish.

https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 30.01.2026



Natijalar.


1.1.Mintaqaviy iqtisodiy integratsiyaning savdoga ta’siri haqida yillar kesimida chop etilgan nashrlar soni.

Mintaqaviy Iqtisodiy integratsiya bo’yicha Scopus ilmiy bazasidan olib borgan tadqiqotimiz natijalariga ko’ra, 1995-2024-yillar oralig’ida jami 82 ta ilmiy nashrlar topilgan.

https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 30.01.2026

Tadqiqotning birinchi savoliga birinchi natija ya’ni Mintaqaviy Iqtisodiy Integratsiyaning savdoga ta’siri nomli tadqiqot yillar kesimida amalga oshirilgan, biz buni 1-rasmdan ko’rishimiz mumkin. Bu yerda 1995-2024-yillar kesimida chiqarilgan nashrlar haqida ma’lumot berilgan. Grafikda 1995-2012-yilgacha bir xil tarzda nashrlar chop etilgan, ya’ni 17 yilda faqat har yili 1 tadan nashrlar chiqarilgan. Biz shunday xulosaga kelamizki bu davrda bu mavzu kam o’rganilgan sababi bu vaqtda mintaqaviy iqtisodiy integratsiya mavzusi haqida olimlarda bilim **yetishmagan bu haqda olimlarda yetarlicha** bilim bo’lmagann va natijada 2013-2017-yilgacha sezilarli darajada ko’proq nashrlar chop etilgan bu 2013-yilda 2 ta dan 2017-yilda 7 ta nashrlar chiqarilgan, biroq 2018-yilda nashrlar chop etilishi keskin tushib ketdi ya’ni faqat 1 ta nashr chiqarilgan. Yana shuni ta’kidlash muhimki Mintaqaviy iqtisodiy integratsiyaning savdoga ta’siri nomli tadqiqotda 2019-2024-yilgacha sezilarli darajada ko’proq nashrlar chop etilgan qolgan yillarga qaraganda ya’ni 2019-yilda 4 tadan tortib 2024-yilda 12 tagacha yuqoridagi mavzu bo’yicha nashrlar chop etilgan. Yana bir muhim ma’lumot shundan iboratki 2022-yilda 8 ta nashr chiqarilgan qolganlaridan farqli ravishda. Xulosa qilib aytadigan bo’lsak Mintaqaviy iqtisodiy integratsiya mavzusi bo’yicha tadqiqotlar yuqoridgi ko’rsatilgan yillarda ko’p va kam o’rganilgan va bu mavzu oxirgi yillarda trendda bo’lgan deb ayta olamiz.

https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 30.01.2026




1-rasm. Yillar davomida Mintaqaviy iqtisodiy integratsiya haqida chop etilgan nashrlar soni tahlili.

1.2. Nashrlarning fanlar bo'yicha taqsimoti taxlili.

Beshinchi tadqiqot savoliga javob sifatida ya'ni eng ko'p o'rganilgan soha qaysi ushbu Mintaqaviy iqtisodiy integratsiyada shuni aniqlash muhim hisoblanadi. Biz rasmdagi diagrammaga qaraydigan bo'lsak Economics, Econometrics and Finance ko'p o'rganilgan tadqiqot obekti hisoblanadi bu bo'lishi ehtimoli yuqori edi nimagaki chunki bizni mavzuimiz Iqtisodiyotni bir qismi hisoblangni uchun ham 42 ta maqola aynan shu sohaga atab chiqarilgan demakki bizni tadqiqotimiz aynann shu sohai rivojlantirish uchun chiqarilgan desak ham bo'ladi. Keyingi o'rinlarda Social Sciences bo'yicha maqolalar chiqarilishda davom etgan ya'ni Ijtimoiy ilmlar borasida ham ilmiy tadqiqot yetakchi o'rinlarda bo'lgan va 41 ta maqola aynan shu mavzuga atab chiqarilgan. Keyingi o'rinlarda Business, Management and Accounting ga bog'liq 20 ta maqolalar chiqarilgan biz bundan kelib chiqib 1995-2024-yillar mobaynida yuqoridagi mavzular va sohalar o'rganilish bo'yicha yetakchi bo'lgan deb ayta olamiz. Bundan tashqari

https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 30.01.2026

Environmental Sciense borasida ham ko'p izlanishlar olib borilgan bular o'sha davrning dolzarb mavzulari hisoblangan va shu davrgacha bu soha uchun 11 ta maqola chop etilgan. Qolgan sohalar ham yetakchio bo'lgan bu borada bular Arts and Humanities, Multidisciplinary, Computer Science, Energy, Engineering, Earth and Planetary, Sciences and Psychology kabi fanlarda ham ko'plab ilmiy izlanishlar olib borilgan.




2-rasm. Mintaqaviy iqtisodiy integratsiyaning savdoga ta'siri doirasida chop etilgan nashrlarning fanlar bo'yicha tahlili.

1.3. Chop etilgan nashrlarning hujjatlar turi bo'yicha taqsimoti.

Mintaqaviy iqtisodiy integratsiyaning savdoga ta'siri mavzusida 1995-2024-yillar davomida chop etilgan nashrlarning 80 tasi maqola va 6 tasi review bo'lgan. Biz buni 3-rasmdan ko'rishimiz mumkin, asosiy chop etilgan nashrlarning salmog'ini maqolalar egallaganidan ham bu mavzuda ko'plab yangiliklar o'ylab

https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 30.01.2026

topilgan bu mavzuga oid ko'plam muammolar o'z yechimini topgan degan xulosaga kelish mumkin. Chunki maqola bilan reviewni farqini quyidagicha: maqola chuqur ilmiy izlanish davomida muammoga yangi yechim berish va yo'q g'oyani tahlil va hisob kitob qilish orqali ommaga chiqarish bo'lsa, review esa bor katta hajmdagi muammolarni tahlil qilish orqali umumiy xulosa berish hisoblanadi. Xulosa o'rnida Mintaqaviy iqtisodiy integratsiyaning savdoga ta'siri nomli mavzu ko'p o'rganilganini 3-rasm ma'lumotlaridan ko'rishimiz mumkin.



3-rasm. Chop etilgan nashrlarning fanlar bo'yicha taqsimoti tahlili.


1.4. Mintaqaviy iqtisodiy integratsiyaning savdoga ta'siri mavzusida chop etilgan nashrlarning davlatlar kesimida taqsimoti.

Tadqiqot savoli 3 Mintaqaviy iqtisodiy integratsiyaning savdoga ta'sirini bibliometric analiz qilishda biz bu mavzuni qaysi mamlakatlar eng ko'p tadqiqot olib borgan, bu mavzuda va yana o'sha mamlakatlardagi qaysi Universitetlar bu mavzuni chuqurroq yoritishga va bu mavzuga oid muammolarni yechimini berishda hissasini qo'shganini aniqlash muhim.

Mintaqaviy iqtisodiy integratsiyaning savdoga ta'sirini ko'p o'rgangan mamlakatlardan biri bu Xitoy Xalq Respublisasi hisoblanadi va o'sha yili mamlakatda 26 ta maqola chop etilgan va Zhejiang University, China University of

https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 30.01.2026

Geosciences va Peking University lar ushbu mavzu bo'yicha ko'p tadqiqotlar olib borgan buni biz rasm va rasm dan bilib olishimiz mumkin. Xuddi shu mavzuni keyingi o'rinlarda ko'p o'rgangan davlat bu Amerika Qo'shma Shtatlari hisoblanadi bu mamlakatda ham 11 ta maqola chop etilgan va bu yerda Yale University va Texas A&M University lar yuqoridagi mavzuni o'rganishga yuqori hissa qo'shgan desak mubolag'a bo'lmaydi. Keyingi o'rinlarda Rossiya Federatsiyasi ushbu mavzuni eng ko'p o'rgangan desak ham mubolag'a bo'lmaydi chunki 9 ta maqola chiqargan va Moscow State Institute of International Relations MGIMO va Financial University under the Government of the Russian Federation universitetlar eng ko'p maqola chiqarilishida hissa qo'shgan desak ham mubolag'a bo'lmaydi bu tadqiqotchilarga aynan qaysi universitetning bazasidan ma'lumotidan foydalansak bo'ladi degan dolzarb savolga javob topadi bu bibliometric analiz . Bundan tashqari ko'plab davlatlar universitetlari ushbu sohada tadqiqot qilishgan va yana ko'proq ma'lumotlarni jadvaldan olishlaringiz mumkin.




4-rasm. Mintaqaviy iqtisodiy integratsiyaning savdoga ta'siri bo'cha nashrlarning davlatlar kesimida tahlili.

1.5. Eng ko'p nashrlarni o'zida jamlagan Jurnallar

https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 30.01.2026

5-rasm. Ma’lumotlar shuni ko’rsatib turibdiki Mintaqaviy Iqtisodiy Integratsiyani saavdoga ta’siri mavzusida olib borilgan bibliometrik tahlil natijalariga asoslanib bu mavzuda eng ko’p nashrlar chop etilgan jurnal sifatida Heliyon jurnalini olishimiz mumkin bu jurnalda 3 ta nashrlar chop etilgan, va xuddi shu ko’rsatkichda bir xil nashrlar chop etilgan jurnallar sifatida Journal of economic integration and sustainability Switzerland jurnallarida nashr qilingan. Bundan tashqari yuqoridagi mavzuda nashrlar chop etishda yetakchi bo’lgan jurnallar bular Economy of regions dan tortib diagrammada Review of International Economics jurnallari yetakchilik qilgan ya’ni bu mavzularda bir xil 2 ta nashrlar chop etilgan. Mintaqaviy iqtisodiy integratsiyani savdoga ta’siri mavzusida kamroq faol bo’lgan jurnallar bor bular atigi 1 ta nashr chop etgan bu jurnallar: African Human Rights Law Journal va African journal of Legal Studies jurnallari hisoblanadi. Albatta bu ma’lumotlar tadqiqotchiga qaysi jurnal ma’lumotlarini ko’proq o’rganish kerak degan savolga javob beradi.




5-rasm. Nashrlarning chop etilish manbasi bo’yicha tahlillar.

https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 30.01.2026

1.6. Nashrlari eng ko’p chop etilgan mualliflar

6-Rasm. Ma’lumotlariga asoslanib bizning Mintaqaviy Iqtisodiy Integratsiyaning savdoga ta’siri nomli mavzuimizni eng ko’p o’rganib o’zining ilmiy izlanish natijalarini nashr qilgan mualliflar haqida ma’lumot berilgan bular: Obasaju, B.O. , Okodua, H., Olayiwola, W.K., Park, S.C mana shu mualliflar yuqoridagi mavzuimizda eng ko’p ilmiy izlanish olib borgan olimlar hisoblanadi boshqalariga qaraganda bular ushbu mavzuda 2 tadan ilmiy izlanish natijalarini nashr qildirgan olimlar hisoblanadi bu sohada yana ko’plab olimlar ilmiy ishini olib borgan bular: Abu-Dalbouh,W.K., Adam,A.M., Adedian,O.S., Adekunle,B.S. kabi olimlar yuqoridagi mavzularni o’rgan va 1 tadan nashrni chop ettirgan.




6-rasm. Mualliflarning nashr qilish faolligi tahlili.

1.7. Ilmiy izlanish natijalari nashrlari uchun yetakchi bo’lgan tashkilotlar.

https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 30.01.2026

Mintaqaviy Iqtisodiy Integratsiyaning savdoga ta'siri mavzusida nashrlar tashkilotlar tomonidan chop ettirilgan. Biz diagramma ma'lumotlariga asoslanib qaysi tashkilotlar yoki universitetlar bu mavzuda ko'p ilmiy izlanishlarni o'zida rivojlanishini xohlagan va shu yerda faoliyat yuritayotgan olimlarga mana shu sohani o'rganishga ruhlantirgan universitetlar haqida ma'lumot beradi bu yuqoridagi rasm. Berilgan ma'lumotlarga asoslanib University of Banja, National University of Singapore, Peking University, Financial University under the Government of the Russian Federation kabi universitetlar 2 tadan nashrlarni chop ettirgan. Bu tendensiyadan bu mavzu hali u darajada trendda emas va buni o'rganiladigan joylari ko'p degan xulosaga kelish mumkin.




7-rasm. Nashrlarning chop etilishdagi tashkilotlar xamkorligi darajasi tahlili.

1.8. Ilmiy nashrlarni nashriyotida homiylik qilgan asosiy tashkilotlar

